

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 5, 31 Май

**HAPLOPHYLLUM JUSS TURKUMI TURLARINING TARQALISHI VA.
DORIVORLIK XUSUSIYATLARI**

Biologiya va qishloq xo'jaligi mahsulotlari kafedrası o'qituvchisi –

Asadova Flyura Faxriddinovna

filuraasadova@gmail.com

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi-

Qilicheva Umida

Umidaqilicheva25@gmail.com.

Annotatsiya: Haplophyllum Juss turkumi Toshbaqatoldoshlar oilasiga mansub bo'lib asosan kòp yillik òtlar bazan past boyli butalar hisoblanadi. Turkum vakillari toğ va toğ oldi hududlarda adrlar ,pas teksliklarda qumli va qumloq mayin tuproqli hududlarda keng tarqalgan . Tarkibida kòplab biologik faol moddalar mavjud bo'lib tibbiyotda va xalq tabobatining turli sohalarida keng qòllaniladi.

Kalit sòzlar: Toshbaqatoldoshlar, Haplophyllum Juss , Markaziy osiyo, qumli, dorivor, yer usti qismi, ildiz, tinchlantruvchi, antibakterial, bo'yiqli , tibbiyot, xalq tabobati, Artemisia absinthium.

**DISTRIBUTION OF SPECIES OF THE HAPLOPHYLLUM JUSS GENUS
AND. PHARMACEUTICAL PROPERTIES**

Annotation: Haplophyllum Juss belongs to the family of sedges and is considered to be mainly perennial herbs and sometimes low-growing shrubs. The representatives of the genus are widespread in areas with sandy and loamy soft soil in the mountains and sub-mountain areas. It contains many biologically active substances and is widely used in medicine and various fields of folk medicine.

Key Words: Cloves, Haplophyllum Juss, Central Asia, sandy, medicinal, aerial part, root, sedative, antibacterial, medicinal, medicine, folk medicine, Artemisia absinthium.

**РАСПРОСТРАНЕНИЕ ВИДОВ РОДА HAPLOPHYLLUM JUSS И.
ФАРМАЦЕВТИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА**

Аннотация: Haplophyllum Juss относится к семейству осоковых и считается преимущественно многолетним травянистым, а иногда и

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 5, 31 Май

низкорослым кустарником. Представители рода широко распространены на участках с песчано-суглинистыми мягкими почвами в горах и предгорьях. Он содержит множество биологически активных веществ и широко используется в медицине и различных областях народной медицины.

Ключевые слова: гвоздика, *Haplophyllum* Juss, Средняя Азия, песчаная, лекарственная, надземная часть, корень, седативное, антибактериальное, лекарственное, лекарственное средство, народная медицина, полынь полынная.

Har bir tur o'ziga xos bo'lgan ekologik makonda, diapazonda o'sishga moslashgan, shu bilan birga tuproq, iqlim, yog'ingarchilik hamda boshqa omillar ta'siri ostida o'sib rivojlanadi. Bundan tashqari, asosiy bosim antropogen omil tomonidan amalga oshirilib, bular lalmikor va sug'orma dexqonchilik, texnogen-qurilishlar, kommunikatsiyalar, chorva mollarini tartibsiz boqilishi bilan izohlanadi. Bu omillar ta'sirida o'simlik populyatsiyasi qisqaradi yoki aksincha holatda bo'ladi. Bunga misol bo'lgan *Haplophyllum* juss. turkum turlari ham bundan mustasno emas. *Haplophyllum* Juss. turkum Rutaceae (Toshbaqao'ldoshlar) oilasidagi yirik turkumlardan biri bo'lib, yer yuzida keng tarqalgan 70 turni o'z ichiga oladi. Turkum turlari Markaziy Osiyo, Sharqiy Sibir, Rossiya, Mog'uliston, Xitoy bo'ylab keng tarqalgan. Mazkur hududlarga nisbatan Eron-Turon jumladan Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasida nisbatan kengroq tarqalgan.

Ushbu turkum vakillari asosan O'zbekistonning Toshkent, Sirdaryo, Jizzax, Samarqand, Farg'ona, Qashqadaryo va Surxandaryo viloyatining ko'plab tumanlari, xususan; Oltinsoy tumani, Jarqo'rg'on tumani Oqtepa qishlog'i atrofida va Termiz tumani Kattaqum cho'lida, Sherobod tumani Ko'hitang tog'tizmasi va Surxon davlat qo'riqxonasi, Sangardak daryosi havzasi, Denov tumani O'zbekiston qishlog'ida, Uzun tumani Sharg'un tog'i atrofi, Bobotog'ning Chagam, Ko'rsoqsoy va Oybuloq qishlog'i va boshqa shu kabi hududlarda asosan adir va tog' oldi olajinsli, Lessli tog' yonbag'rlari va jarliklarda qumli qumloq va qumloq joylarda tog' etaklaridagi rang-barang jismlarning qoldiqlarida tekislik va tog' oldi, qumli va mayin tuproqli joylarda tarqalgan.

Haplophyllum Juss. turkumi turlarining dorivorlik xususiyatlari.

Haplophyllum J. turkumiga mansub o'simliklar biologik faol moddalarga boy bo'lib, xalq tabobatida tutqanoq, allergiya, nevroz, qon bosimining ko'tarilishi kabi

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 5, 31 Май

kasalliklarni davolashda keng foydalaniladi. O'zbekistonda o'suvchi shu turkumga mansub o'simlik turlarining kimyoviy tarkibini va farmakologik xususiyatlarini tadqiq etish natijasida dorivor vositalar yaratish imkonini beradi. So'nggi yillarda turkum vakillarining kimyoviy tarkibi va ulardan farmasanoatda foydalanish borasida qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu esa mahalliy aholini arzon dori vositalari bilan ta'minlash imkonini beradi. Hozirgi kunda dori-darmonlarga qo'yilayotgan talablarni eng muhimi ham shu hisoblanadi.

Surxandaryo viloyatining tarqalgan ayrim *Haplophyllum* Juss turkumi turlarining bir qancha turlari ham dorivor xususiyatga ega xisoblanadi. Bular bilan quyida tanishib chiqamiz.

1. Buxoro toshbaqao'ti (*H. bucharicum* Litv.) - Yer ustiki qismi guli, bargi va poyasi asosan dorivor xususiyatga ega hisoblanadi. Tibbiyotda o'simlikdan olinadigan buxarin va uning birikmalaridagi efir moylaridan nerv sistemasini tinchlanturuvchi va bakterialarga qarshi dori sifatida ishlatiladi.

2. Shubhali toshbaqao't (*H. dubium* Korovin) - Yer ustiki qismi guli, bargi, ildizi va poyasida dorivorlik hususiyati mavjud. Tibbiyotda o'simlikdan olingan moddalardan antibakterialogik, nerv tizimini tinchlanturuvchi, yurak muskullarini ritmini o'zgartiruvchi xususiyatga ega bo'lgan dori vositalari tayyorlashda foydalaniladi. Shuningdek, narkoz va shunga o'xshash moddalar tarkibiga xam ishlatiladi. Undan tashqari o'simliklardan olingan tarkibidagi efir moyli moddlar o'sma kasalliklarini oldini olishda ham qo'llaniladi

3. Kenbarg toshbaqao't (*H. latifolium* Kar. et Kir.) - Yer ustiki qismi guli, bargi, ildizi va poyasi dorivor. Tibbiyotda o'simlikdan olingan moddalardan nerv tizimini tinchlanturuvchi dori vositalari tayyorlashda foydalaniladi .

4. Toshbaqatol (*H. acutifolium* G. Don.) Yer ustki qismi foydali hisoblanadi. Ham dorivor ham bo'yoqli o'simlik hisoblanadi. Xalq tabobatida o'simlikning guli va bargidan tayyorlangan damlamalar asab tizimini tizlantiruvchi xususiyatiga ko'ra foydalaniladi. O'simlikning bargidan tayyorlangan damlamalar orqali esa tish og'rig'i, ko'krak kafasidagi og'riqlarni davolashda foydalaniladi. O'simlikning (*Artemisia absinthium*) bilan aralashmasi teridagi toshmalarga qarshi qo'llaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI.

1. Botirov E.X., Yuldashev M.P., Matkarimov A.D., Malikov V.M. Kumariny, flavonoidy i lignany pyati vidov rasteniy roda *Haplophyllum*

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 5, 31 Май

- A. Juss Surgutskiy gosudarstvennyy universitet, Institut khimii rastitelnykh veshchestv im. akad. S.Yu. Yunusova AN RUz700170
2. Djangurazov F.X. Новые местонахождения Dionisii Gissarskoy (Dionysia hissarica Lipsky) v bassejne r. Sangardak (Zapadnyy Gissar) // Izvestiya Akademii Nauk Tadzhikskoy SSR. – Dushanbe: AN TadSSR, 1965. -№1 (18). – S. 43-45.
3. Ibragimov A.J. Flora Surxanskogo zapovednika (xrebet Kugitang):. Dissert. kand. biol. nauk. – Tashkent: 2010. – 160 b.
4. Raunkiaer S. The life form of plants and statisticae plant geography. –
5. Turginov O.T. Boysun botanik-geografik rayoni florasi: Dis. ...kand biol nauk. – Toshkent, 2017. – 296. b.
6. Turginov O.T. Новые дополнения для флоры Yugo-Zapadnogo Gissara // O‘zbek biologiya jurnali. – Tashkent: Fan, 2014. Maxsus son. – B. 69-71.